XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 20-dekabr VII-3-022-10-0-K/24 Toshkent viloyati

Toshkent viloyati hududida qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun yagona tariflarni belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5-son Farmoni, 2023-yil 15-avgustdagi “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarishni yanada samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-278-sonli qarori, 2020-yil 29-sentabrdagi “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4845-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevraldagi “Chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi normativ- huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 95-sonli qarori talablariga asosan Toshkent viloyati hududlarida maishiy chiqindi xizmatlari uchun to‘lov tariflarini tartibga solish maqsadida, Xalq deputatlari Toshkent viloyati kengashi,

Q A R O R Q I L A D I :

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi PF-5-son Farmoni, 2023-yil 15-avgustdagi PQ-278-sonli qarori, 2020-yil 29-sentabrdagi PQ-4845-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevraldagi 95-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Sanitar tozalash korxonalari - “Angren Bunyod Fayz” MCHJ, “Nurli yo‘l marvaridi” MCHJ, “Ohangaron sanitariya tozalash” MCHJ, “Rahnamo Servis” MCHJ, Toshkent viloyati “Toza Hudud” davlat unitar korxonasi

hamda “Zero-Waste” MCHJ tomonidan hududlarda maishiy chiqindi xizmatlari uchun yangi to‘lov tariflari **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish respublika markazining “Angren Bunyod Fayz” MCHJga 2024-yil 8-aprelda berilgan 01-10/463-son, “Nurli yo‘l marvaridi” MCHJga 2024-yil 5-apreldagi 01-10/427-son, “Ohangaron sanitariya tozalash” MCHJga 2024-yil 5-apreldagi 1-10/426-son, “Rahnamo Servis” MCHJga 2024-yil 27-maydagi 01-10/662-son, Toshkent viloyati “Toza Hudud” davlat unitar korxonasiga 2024-yil 29-mayda 01-10/675-son hamda “Zero-Waste” MCHJga 2024-yil 28-martdagi 03-10/389-son xulosalari, shuningdek Toshkent viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi tomonidan 2024-yilning 4-iyundagi 01/126-son xulosasi inobatga olinganligi ko‘rsatib o‘tilsin.

3. Hududlarda maishiy chiqindi xizmatlari uchun to‘lov tariflari ilovada keltirilgan tariflarga muvofiq 2025-yil 1-yanvardan boshlab qo‘llanilishi belgilansin.

4. Viloyat Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (F.Xudoyberdiyev), viloyat G‘aznachilik boshqarmasi (F.Nurillayev) byudjetdan moliyalashtiriladigan tashkilotlarning xarajatlar smetasida qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni tashib ketish xizmatlari bo‘yicha belgilangan normativlar asosida zarur mablag‘lar rejalashtirilishi ko‘rsatib o‘tilsin.

5. Viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi boshlig‘i (Z.Eraliyeva), “Toshkent haqiqati”, “Tashkentskaya pravda” gazetalariga qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish xizmatlarining yangi tariflari 2025-yilning 1-yanvardan boshlab qo‘llanilishi yuzasidan ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borilsin.

6. “Angren Bunyod Fayz” MCHJ, “Nurli yo‘l marvaridi” MCHJ, “Ohangaron sanitariya tozalash” MCHJ, “Rahnamo Servis” MCHJ, Toshkent viloyati “Toza Hudud” davlat unitar korxonasi, “Zero-Waste” MCHJ hududlarda maishiy chiqindi xizmatlari uchun yangi to‘lov tariflari 2025-yil 1-yanvar kunidan boshlab qo‘llanishi yuzasidan xar bir mahallada targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borsin.

7. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi va ekologiya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi A.Xudayberganov, viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari O.Tursunov hamda viloyat hokimining o‘rinbosari Sh.Mahmudovl zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



FAYZIYEV
TO‘LQUNJON
OBIDOVICH

Xalq deputatlari Toshkent viloyati
Kengashining
2024-yil 20-dekabrdagi
VII-3-022-10-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Maishiy chiqindi xizmatlari uchun yangi to‘lov TARIFLAR*

T.r.	Tashkilot nomi	Xizmat turi	Xizmat ko‘rsatuvchi obyekt	O‘lchov birligi	Tasdiqlangan tarif *(so‘m QQS siz)*	Tasdiqlangan tarif *(so‘m QQS bilan)*
1	“Angren Bunyod Fayz” MCHJ	Maishiy chiqindi xizmatlari	Jismoniy shaxslar uchun	1 kishi (bir oylik)	7 000,0	7 840,0
2	“Nurli yo‘l marvaridi” MCHJ					
3	“Ohangaron sanitariya tozalash” MCHJ					
4	“Rahnamo Servis” MCHJ		Yuridik shaxslar uchun	1 m3	74 000,0	82 880,0
5	Toshkent viloyati “Toza Hudud” DUK					
6	“Zero-Waste” MCHJ					

** korxonalar faoliyati tugatilganda, uning vazifasini bajaruvchi korxonalarda belgilangan tariflar keyingi tarif o‘zgargunga qadar saqlab qolinadi.*